

## INKLYUZIV TA'LIMDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI RIVOJLANTIRISH VA IJTIMOIYLASHTIRISHDA AKT NING O'RNI VA AHAMIYATI

**Ikromova Nilufarxon Axmadjonovna**

*Buloqboshi pedagogika kolleji katta o'qituvchi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish jarayonida AKT dan foydalanish va uning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, inklyuziv ta'lim, ta'lim xizmati, konsepsiya, maqsad, rivojlantirish, jamiyat, AKT.

Ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida "Yo'l xaritasi" asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi.

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan: 2020 — 2022-yillar davomida:

- inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish; inklyuziv ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish; inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan

ta'minlanishi; inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantirish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta'lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish;

- 2023 — 2025-yillar davomida: inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish;

- inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko'rish; o'quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari soni optimallashtirish belgilab qo'yildi.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va saglom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy xaëtgà erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash huquqini ruëbga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

"Inklyuziv ta'lim nazariyasi" fani o'qitilishi davomida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishini talab etadi: "Inklyuziv ta'lim nazariyasi" fan sifatida rivojlanishi bo'yicha chet el hamda mahalliy tajribani o'zlashtirish; inklyuziv ta'liming insoniyat va jamiyat hayotidagi rolini, yordam ko'rsatish texnologiyalari hamda uslubiy asoslarini o'rganish; ijtimoiy ishda

tadqiqotchilik loyihasini yozish va rasmiylashtirish; ijtimoiy ishchilarni tayyorlashda ta'limiy dastur va o'quv jarayonini tashkillashtirish uslubiyotini o'rganish; ijtimoiy ishning samaradorligi (nazariy uslubiy jihati) haqidagi bilimlarni boyitish. "Inklyuziv ta'limda o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fan "Inklyuziv ta'lim" sohasining fundamental nazariy asoslarini, ilmiy-uslubiy yondoshuvlarni egallanilishini nazarga tutganligi sababli mazkur kursda ta'lim berishning ham an'anaviy usullari hamda innovasion pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi. Jumladan, qisqa hajmli ma'ruzalar, aqliy xujum usuli, guruhlarda ishlash, guruhiy namoyishlar, individual tahlilni amalga oshirish; keys-stadi, ya'ni ijtimoiy hayotdan keltirilgan vaziyatlarni modellashtirish orqali rolli ijro etish hamda uni muhokama etish, pover-point namoyish hamda ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslariga mos darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlardan foydalaniladi.

"Inklyuziv ta'limda o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. "Inklyuziv ta'lim" sohasining fundamental nazariy asoslarini, ilmiy-uslubiy yondoshuvlarni egallanilishini nazarga tutganligi sababli mazkur kursda ta'lim berishning ham an'anaviy usullari hamda innovasion pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi.

Jumladan,

- qisqa hajmli ma'ruzalar,
- aqliy xujum usuli,
- guruhlarda ishlash,
- guruhiy namoyishlar,
- individual tahlilni amalga oshirish;
- keys-stadi, ya'ni ijtimoiy hayotdan keltirilgan vaziyatlarni modellashtirish orqali rolli ijro etish hamda uni muhokama etish,
  - pover-point namoyish hamda ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslariga mos darslik,
  - o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar,
  - elektron materiallar, virtual stendlardan foydalaniladi.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olibib borilsa abatta ko'zlangan

maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020

2. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.

3. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta'lim texnologiyasi” o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil

4. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013. 83-б.

5. Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20\23 bet